

TILLARNI O‘RGANISHDA ETIMOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Naimova Parvina - SamDChTI
Ispan-italyan kafedrası o‘qituvchisi
Toxirova Ruxshona - SamDChTI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun talablaridan biri bo‘lgan, til o‘rganish muhimligi va sabablari ilgari surilgan. Til bilgan inson turli millat va xalqlarning urf-odatları va tarixini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tillarni o‘rganishda esa etimologik ta’sirlarning ahamiyatli jihatlarini e’tiborga olish masadga muvofiqdir. Shuningdek maqolada italyan tilini asosiy tarixiy rivojlanish bosqichlari, italyan tiliga etimologik ta’sirlar, ma’lumotlar hamda tilni o‘rganish borasida tavsiyalar berilgan.

Tayanch iboralar: etimologiya, logos, morfema, genetik evolyutsiya, nazariya, italyan til, tarixiy bosqich, rivojlantiruvchi omillar, etimogik ta’sir, tabiiy tarixiy jarayon.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir zamonda dunyodagi ko‘plab mamlakatlarda o‘z ona tillaridan tashqari bir qancha chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan intilish davlat siyosati darajasida ko‘tarilmoqda. Bu kabi intilish va urinishlar bejiz emas albatta, chunki boshqa xalqlarning urf-odati, turmush tarzini bilish va dunyoqarashini kengaytish insondan o‘sha millat tilini bilishni talab etadi. Yurtimizda ham bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Chet tillarini (asosan ingliz, italyan, nemis fransuz, ispan, koreys, xitoy tillari va boshqalar) o‘rganishga qaratilgan chora tadbirlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Chunki boshqa tillarni bilishga ehtiyoj bugundan paydo bo‘lib qolmasdan balki uzoq o‘tmishimizda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Insoniyat yaralibdi-ki odamlar bir-birlari bilan o‘zaro til orqali muloqotga kirishib kelishmoqda. Til bu xalqlarning bir-biriga bog‘lovchi betakror fenomen hisoblansa, boshqa tarafdin esa turli millatlarni bir-biridan ajratuvchi o‘ziga xos noyob hodisadir. Bugungi kunda til o‘rganish juda ham muhim. Bunga misol tarixdan ma’lum-ki qaysi xalq vakillari qancha ko‘p til bilsa shuncha tez va mukammal taraqqiyot yo‘liga chiqq olganlar. [1]

Quyida chet tillarni o‘rganishning 8 muhim sabablarini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz:

Yaxshi fikrlashga undaydi	Xotirani yaxshilashga yordam beradi	Ko‘plab do‘stlar orttirish imkonini beradi	Ishlash imkonini oshiradi.	Yangi qadriyat va madaniyatlarini bilish	Aqliy qobiliyatimizni oshirishga imkon beradi	Sayohat arzonlashadi va osonlashadi	Ilmiy yutuqlarini oshiradi
---------------------------	-------------------------------------	--	----------------------------	--	---	-------------------------------------	----------------------------

Yuqorida til bilishning muhim tomonlarini va sabablari haqida mulohazalarni keltirdik. Tillarni o‘rganish jarayonida qaysi millat tili bo‘lishidan qat’iy nazar uning etimologik rivojlanishidan kelib chiqib o‘rganilsa, tilning soflik darajasi yuqori bo‘ladi. Chunki, tillardagi so‘zlarning dastlabki kelib chiqish ma’nosi etimologik lug‘atlarda atroflicha beriladi. Ensiklopedik nashrlarda, jumladan, O‘zbekiston milliy

ensiklopediyasida, odatda, boshqa tildan oʻtgan soʻzlargagina etimologik sharx koʻrsatiladi. Oʻzbek tilshunosligiga bagʻishlangan bir qator tadqiqotlarda va ayrim sohalar boʻyicha tuzilgan lugʻatlarda etimologik izlanishlar mavjud boʻlsada, etimologiya toʻla maʼnodagi fan sohasi sifatida shakllanib yetmagan. Professor Sh. Rahmatullayevning keyingi yillardagi tadqiqot va lugʻatlari bu sohadagi dastlabki tajribalar hisoblanadi. Etimologik lugʻatlarda asosan soʻzning kelib chiqishi haqida keng maʼlumotlar beriladi, Umumiy tillar etimologiyasi tilning paydo boʻlishi, rivojlanishi va oʻzgarishini oʻrganish bilan bogʻliq boʻlgan ilmiy yoʻnalishdir. Har bir tilning kelib chiqishi tarixiy, madaniy va lingvistik jarayonlarga asoslanadi. Shu oʻrinda etimologiya soʻzining lugʻaviy maʼnosiga toʻxtalsak:

Etimologiya (ἔτυμον — haqiqat va λόγος [logiya] — soʻz; soʻzning haqiqiy maʼnosi)

birinchidan: soʻz va morfemalarning kelib chiqishini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi;

ikkinchidan: soʻzning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmuyi;

uchinchidan: soʻzning kelib chiqishi. XIX asr tilshunosligida „Etimologiya“ termini “garmmatika” maʼnosida ham qoʻllangan.[2]

<i>Tillarning umumiy etimologik tarixi haqida asosiy maʼlumotlar va yondashuvlar</i>		
1	Tabiiy ovoz nazariyasi	Dastlabki tillar tabiatdagi tovushlarni taqlid qilish orqali shakllangan (masalan, "mama" — ona uchun chaqaloqlarning oddiy ovoz chiqarimasidan kelib chiqqan).
2	Qoʻl harakati va imo-ishora nazariyasi	Ovozli nutq imo-ishora bilan bogʻliq boʻlgan dastlabki insonlarning aloqa vositasidan rivojlangan
3	Genetik evolyutsiya nazariyasi	Inson miya tuzilmasi va ovoz apparati rivojlanishi bilan birgalikda tilning shakllanishi yuzaga kelgan

Shuningdek taʼkidlab aytishimiz lozimki, dunyo tillari oʻzaro bogʻliq va ular tarixiy ildizlardan ajralib chiqqan til oilalariga boʻlinadi:

- Indoevropa tillari
- Turkiy tillar
- Semit tillari
- Xitoy-tibet tillari
- Afrika tillari
- Ural tillari

Tillarni rivojlantiruvchi omillar quyidagilardan iborat:

✓ Savdo va madaniy aloqa: Tillarning lugʻat boyligi savdo va madaniyatlararo taʼsir natijasida kengayadi.

✓ Mustamlakachilik: Koʻplab tillar mustamlakachilik davrida keng tarqaldi (masalan, ingliz va ispan tillari).

✓ Diniy taʼsir: Diniy matnlar koʻplab tillarning saqlanishiga va rivojlanishiga sabab boʻlgan (masalan, arab tili Qurʼon tufayli).

Koʻplab tillar etimologik taʼsirlar natijasida oʻzaro soʻz almashinuvi va aralashuvi natijasida boyigan: Masalan:

Arab tili ta'siri: Islom dini orqali ko'plab tillarga arabcha so'zlar kirgan (masalan, "kitob," "ilm").

Lotin tili ta'siri: Yevropa tillarida lotin tili ilm-fan va din orqali keng ta'sir qilgan.

Turkiy va fors tillari ta'siri: Markaziy Osiyoda turkiy va fors tillari o'zaro ko'plab lug'at almashgan.

Biz quyida italyan tili yuzasidan atroflicha yoritib beramiz. Italiya tili, ya'ni italyan tili, o'zining kelib chiqishi va etimologiyasini lotin tilidan oladi. U Rim imperiyasi davrida keng tarqalgan bo'lgan vulgar lotin tilidan rivojlangan. Vulgar lotin tili imperiyaning turli hududlarida o'ziga xos mahalliy dialektlarga ajralib ketgan, va bu dialektlar asta-sekin milliy tillarga aylangan.

Italyan tilining asosiy tarixiy bosqichlari:[3]

❖ Qadimgi Rim va lotin tili

Italiya hududida dastlab etrusk tili va boshqa mahalliy tillar mavjud edi. Miloddan avvalgi III asrda Rim imperiyasi Italiya yarim orolini birlashtirib, lotin tilini hukmron tilga aylantirdi.

❖ Vulgar lotin tili

Rim imperiyasi qulagandan keyin (milodiy V asr), lotin tili oddiy xalq tiliga — vulgar lotinga aylangan. Bu til yozma emas, balki og'zaki nutq shaklida bo'lgan va asta-sekin mahalliy lahjalar shakllanishiga sabab bo'lgan.

❖ O'rta asrlar dialektlari

Italiya hududida turli shaharlarda (Florensiya, Milan, Neapol, Venetsiya) o'ziga xos dialektlar rivojlandi. Aynan toskana dialekti (Florensiya shahri) keyinchalik italyan tilining asosini tashkil qildi.

❖ Adabiy tilda birlashish

XIII-XIV asrlarda toskana dialekti Florensiya shahrining madaniy va iqtisodiy ahamiyati tufayli keng ommalashdi. Bu jarayonga Dante Aligyeri, Petrarka va Bokkachcho kabi yozuvchilar katta hissa qo'shgan. Ayniqsa, Dante Aligyeri o'zining "Ilohiy komediya" asarini vulgar lotin tilining toskana lahjasida yozib, uni adabiy tilga aylantirdi.

❖ Italiya birlashuvi va zamonaviy italyan tili

1861 yilda Italiya birlashgach, toskana dialekti davlatning rasmiy tili sifatida tan olindi va zamonaviy italyan tili shakllandi.

Italyan tiliga etimologik ta'sirlar:[4] Qadimdan ma'lumki italyan tili leksikasining tashkil topishida 3 komponent muhim rol o'ynaydi. Bular quyidagilardir:

1. Qadimgi lotin tili, barcha so'zlar valq qadriyatlarini volgar lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib italyan tili leksikasining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bundan tashqari kundalik ishlatiladigan so'zlar va iboralar yuqoridagi unsurlarda o'z ifodasini topadi.

2. O'zlashma so'zlar, bunday so'zlar boshqa tillardan kelgan bo'lib, bular quyidagilardir : nemis , fransuz , arab, ispan va boshqalar. Bu so'zlaning qiziqarli tomoni shundaki ular asosan klassik tillarning birlashmasidan hosil bo'lgan. (lotin va yunon).

3. Neologizmlar , bu turdagi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlardan suffiks, prefiks va qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladi.

Yuqorida ko'rsatilgan 3 komponentdan tashqari leksikaning rivojlanishiga ikkinchi darajali unsurlar ham yordam beradi. Bular:

* Onomatopiya, bir so'z shaklidan boshqa bir so'zning shakllanishi

* Qisqartirilgan so'zlar, nomlarning qisqartirilib faqat bosh harflarda ifodalanishi

[5]Italyan tilini o'rganishda etimologiyalarni tushunish, so'zlarning kelib chiqishini bilish orqali nafaqat so'zlarni yodlashni osonlashtiradi, balki tilning ma'nosini chuqurroq anglash imkonini beradi. Quyida italyan tilida etimologiyaning ahamiyatini ko'rsatadigan ba'zi misollarni keltiraman:

1. "Amico" (do'st)

Etimologiya: "Amico" so'zi lotin tilidagi amicus so'zidan kelib chiqqan, bu so'z esa amare (sevmok) fe'lidan kelib chiqadi.

Foydasi: "Amico" so'zini o'rganish, lotin tilidagi amicus va amare fe'li orqali "do'st" so'zining "sevmok" ma'nosidan kelib chiqqanini tushunishga yordam beradi. Bu tilni o'rganishda "amore" (sevgi), "amabile" (yoqimli) kabi boshqa so'zlarni o'rganish uchun ham foydalidir.

2. "Telefono" (telefon)

Etimologiya: "Telefono" so'zi yunoncha tele (uzoq) va phone (ovozi) so'zlaridan kelib chiqqan.

Foydasi: Telefon so'zining kelib chiqishi haqida bilish, ushbu so'zning ma'nosini osonroq anglashga yordam beradi. Tele va phone so'zlarining o'zaro bog'liqligi, tilni o'rganish jarayonida boshqa texnologik so'zlar bilan bog'lanishni osonlashtiradi.

3. "Biblioteca" (kutubxona)

Etimologiya: "Biblioteca" yunoncha biblion (kitob) va theke (saqlash joyi) so'zlaridan kelib chiqqan.

Foydasi: Bu so'zni o'rganish orqali "biblioteca" va boshqa kitobga oid so'zlar (masalan, "bibliografia" — badiiy yoki ilmiy asarlarning ro'yxati) o'rtasidagi bog'lanishni tushunish osonlashadi.

4. "Cultura" (madaniyat)

Etimologiya: "Cultura" so'zi lotincha cultura (ekin ekish, tarbiyalash) so'zidan kelib chiqqan, bu esa colere (parvarishlash, boqish) fe'lidan kelib chiqqan.

Foydasi: "Cultura" so'zi, asosan, madaniyatni anglatadi, ammo uning kelib chiqishi tabiatni tarbiyalash bilan bog'liq. Bu, so'zning rivojlanishiga va madaniyatning shakllanishiga bo'lgan tarixiy nuqtai nazarni tushunishga yordam beradi.

5. "Piano" (piano)

Etimologiya: "Piano" so'zi lotincha planus (tekis) so'zidan kelib chiqqan.

Foydasi: "Piano" musiqaviy asbob sifatida qo'llaniladi, va uning "tekis" degan ma'nosi musiqada balandlik darajasi past bo'lgan tovushlarni ifodalashda ishlatiladi. So'zning kelib chiqishi, so'zning ma'nosini to'liq tushunishga yordam beradi.

6. "Famiglia" (oilasi)

Etimologiya: "Famiglia" so'zi lotincha familia so'zidan kelib chiqqan, bu so'z aslida "xizmatkordan iborat guruh" degan ma'noni anglatadi, lekin vaqt o'tishi bilan "oilani" ifodalash uchun ishlatilgan.

Foydasi: "Famiglia" so'zining kelib chiqishi, uning odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni va o'zaro yordamni ko'rsatishdagi o'zgarishini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bu "famigliarità" (oilaviy, do'stona) kabi so'zlar bilan bog'lanishni osonlashtiradi.

7. "Educare" (tarbiyalamoq)

Etimologiya: "Educare" so'zi lotincha educare (tarbiyalash) fe'lidan kelib chiqqan, bu esa e (tashqariga) va ducere (yetaklash) so'zlaridan tashkil topgan.

Foydasi: "Educare" so'zining kelib chiqishi, bu jarayonda tarbiyalashning maqsadi insonni "tashqariga olib chiqish", ya'ni uning ichki potentsialini rivojlantirishni anglatadi. Bu, so'zning ma'nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi va boshqa shunga o'xshash so'zlarni o'rganishda yordam beradi.

Italyan tilini o'rganishdagi tavsiyalarimiz til o'rganish bo'yicha turli tuman mashqlar, turli xil o'yinlar katta yordam beradi. Agar insonda til bo'yicha ma'lum ko'nikma mavjud bo'lsa, unda uni yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun ma'lum muddat Italiyaga borib kelishni tavsiya etamiz, negaki til — muhit bor joyda tez o'zlashtiriladi. Italyan tili o'rganish uchun yetarlicha oson hisoblanadi. Bizning o'zbek tilimiz grammatikasi italyan tilidagiga o'xshamasada, qolgan tillardan anchagina osonroq o'zlashtiriladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz joizki, umuman olganda tillarni o'rganishda etimologik ta'sir jarayonlari asosida tahlil qilish til o'rganuvchu subyekt uchun to'g'ri va keng ma'lumotlar bazasini beradi. Tillar etimologiyasi o'z ichiga tarix, madaniyat va geografiyani qamrab olgan murakkab jarayon bo'lib, ularning shakllanishida insoniyatning rivojlanishi va o'zaro aloqalari katta ahamiyatga ega. Har bir til insoniyat tarixining bir bo'lak sifatida o'zining betakror rivojlanish yo'liga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. T.Musurmonov SHDPI Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchi "Xorijiy tillarni o'rganishning hayotimizdagi tutgan o'rni va o'rganish sabablari" nomli maqola.
2. Rahmatullayev Sh., O'zbek tilining etimologik lug'ati, Toshkent: Universitet, 2000, B. 7-8
3. Tuychiyeva O. Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'qituvchisi "Lotin tili tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyati" nomli maqola, FTAI jild: 03, nashr: 09, Noyabr 2022, B. 96
4. Nurmamedova Z. SamDChTI talabasi. "Italyan tilida o'zlashma so'zlar" nomli referati, B. 6
5. Manlio Cortelazzo "Il vocabolario Etimologico", Bologna: Zanichelli, 1979